



GLOBALLASHUV DAVRIDA MILLIY TILLARNI SAQLAB QOLISH MUAMMOLARI

Tursunov Bexzodbek Baxodirovich

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

“Gumanitar fanlar” kafedrası dotsent v.b., (PhD)

behzod.tursunov.88@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada, globallashuv natijasida dunyoning yagona axborot makoniga aylanib borishi tillar taqdirida ham katta rol o'ynaydi. Masalan, o'tgan ming yillikda dunyo tillarining 500tasi o'lik tilga aylangan bo'lsa, so'nggi yuz yillikda esa 1000ta til tarix qa'riga singib ketdi. Tillararo notenglik – kichik tillar yashovchanligiga salbiy ta'sir qiluvchi asosiy omil. Qaysidir til muhimroq, obro'liroq, qulayroq bo'lib, unga muayyan bir jamiyat yoki dunyo miqyosida ko'proq e'tibor qaratilayotgani tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Tillar, xavf, globallashuv, migratsiya, xalqlar, tarix, ingliz, xitoy, YUNESKO.

Аннотация: В данной статье большую роль в судьбе языков играет тот факт, что мир становится единым информационным пространством в результате глобализации. Например, за последнее тысячелетие 500 языков мира стали мертвыми языками, а за последние сто лет 1000 языков исчезли в глубь истории. Межъязыковое неравенство является основным фактором, влияющим на жизнеспособность малых языков. Было исследовано, что определенный язык более важен, более престижен, более удобен и ему уделяется больше внимания в определенном обществе или мире.

Ключевые слова: Языки, риск, глобализация, миграция, народы, история, английский, китайский, ЮНЕСКО.



Abstract: In this article, the fact that the world is becoming a single information space as a result of globalization plays a big role in the fate of languages. For example, in the last millennium, 500 of the world's languages became dead languages, and in the last hundred years, 1000 languages have disappeared into the depths of history. Interlinguistic inequality is a major factor affecting the viability of small languages. It has been researched that a certain language is more important, more prestigious, more convenient, and more attention is paid to it in a certain society or world.

Key words: Languages, risk, globalization, migration, peoples, history, English, Chinese, UNESCO.

Kirish. Dunyo miqyosida globallashuv tendentsiyasining avj olishi va xalqaro darajada davlatlarning siyosiy va iqtisodiy integratsiyasi murakkab, ziddiyatli jarayon sifatida kutilmaganda salbiy xususiyatlar ham namoyon etayotgani sir emas. Bunday tadrijiylik sharoitida yer yuzida yashayotgan 5 mingdan ortiq millatlar va elatlarning fenomenini saqlashga ehtiyoj paydo bo'ladi. YUNESKO hisob kitobiga ko'ra dunyo bo'yicha olti mingdan ziyod tillar mavjud. Britaniya zamonaviy tillarni o'rganish instituti (Institute of modern languages research) ilmiy hodimlari tadqiqotlariga ko'ra globalizatsiya va migratsiya natijasida yaqin yuz yil ichida insoniyat ushbu tillarning yarmidan mahrum bo'ladi. Har oyda 2 ta til o'lik tilga aylanmoqda.[1] Natijada, milliy davlatchilik poydevorini zaiflashtiruvchi omillar, ya'ni tili, tarixi va madaniyatini yo'qotib borayotgan xalqlar soni kun sayin ko'paymoqda.

Muhokama. Til — millatning ko'zgusi bo'lib, unda tarix - o'tmish va kelajak jonlanadi. «Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir» deya e'tirof etadi Abdulla Avloniy.

O'zbek tili taraqqiyoti bugungi kunga qadar juda katta tarixiy yo'lni bosib o'tgan. Tilimizning ilk namunalari O'rxun-Enasoy bitiklarida uchraydi. Ulardagi yozuvlarda aks etgan tilimiz qadimgi turkiy til hisoblanadi.



XI-XII asrlarda mamlakatimiz hududida eski turkiy til shakllanadi. Bu davrda yaratilgan Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari eski turkiy tilda yozilgan betakror va nodir asarlardan hisoblanadi. «Devonu lug'otit turk» asari nafaqat badiiy, balki ilmiy, ijtimoiy ahamiyatga ega asardir. Xuddi shu davrda Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilik», Xo'ja Ahmad Yassaviy "Hikmatlar", Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» asarlari yuzaga keladiki, bu asarlar eski turkiy tilda yozilgan adabiyotning yuksak namunalidir[2].

Shuning uchun ham ona tillarning keng tarqalishiga qaratilgan barcha sa'y-harakatlar nafaqat tillarning turli xilligi va ko'p tillilikning shakllanishi, butun dunyo bo'ylab til hamda madaniy an'analar bilan to'laroq tanishishga, balki o'zaro tushunishga, chidamlilik va muloqotga asoslangan birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ona tillar har bir insonga tug'ilganidan boshlab qanday muhr qoldirishi bilan ham g'oyatda beqiyosdir.

Til va madaniy turli xillikka ko'maklashish maqsadida YUNESKO Bosh konferentsiyasining Qaroriga asosan 2000 yildan boshlab 21 fevral – "**Xalqaro ona tili kuni**" sifatida nishonlab kelinmoqda. Mazkur sana 2001 yildan buyon xalqaro miqyosda keng nishonlanib kelinmoqda. Xalqaro ona tili kunining mazmun-mohiyatida har bir xalqning o'z milliy tafakkuri, ma'naviyati, ruhiyatining o'zagini tashkil etadigan tilga alohida muhabbatning belgisi o'z aksini topadi. Mazkur kun ona tili bayrami sifatida nishonlanar ekan, bu bayram munosabati bilan har bir insonning o'z Vatani va o'z tiliga bo'lgan muhabbati, unga bo'lgan ehtiromi, qadrlash tuyg'ulari yangilanadi. SHu munosabat bilan, har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasida, shuningdek, respublikamizdagi ko'plab milliy-madaniy markazlar tomonidan ham xalqaro ona tili kuni munosabati bilan adabiy-badiiy kecha tashkil etilib kelinadi.

Natija. Dunyodagi barcha xalqlar o'zining milliy rasmiy tiliga ega, deb aytolmaymiz. CHunki bu xalqning milliy mustaqilligi bilan bog'liq. Tilshunos olimlarning fikricha, yana



25 yildan so'ng hozir muomalada bo'lgan tillarning har o'ntasidan bittasi saqlanib qolar ekan.

YUNESKO vakillarining so'zlariga ko'ra, qachonlardir odamlar so'zlashadigan tillar soni 8 mingtagacha yetgan bo'lsa, hozirgi kunda sayyoramizda 6 mingdan ziyod til mavjud bo'lib, ularning 90 foizi yo'qolib ketish arafasida. Bu asosan tsivilizatsiya tufayli madaniyatidan ayrilayotgan kam sonli millatlar tillaridir. Bu tillarda so'zlovchi aholining ayrimlari yozuvga ega bo'lsa, ayrimlari bundan ham bebahra.

Masalan, Afrika tillarida so'zlashuvchi aholining 80 foizi hamon o'z yozuviga ega emas. Minglab tillardan ta'lim tizimida foydalanishning imkoni yo'q. Internetdan foydalana olmaydigan tillar haqida-ku aytmasa ham bo'ladi. CHunki yangi texnologiyalar rivojlanishi tufayli ayrim xalqlar o'z tillaridan ko'ra zamonaviy tillardan foydalanishga majbur bo'lmoqda.

Bugun internetning 54 foizi ingliz tilida[3]. To'g'ri, avvallari ham tillar paydo bo'lgan, muomalada bo'lib, qanchadir vaqtdan so'ng yo'q bo'lib ketgan. Lekin hozirgidek vaziyat tarixda kuzatilmagan. Yo'qolib ketish arafasidagi tillarni saqlab qolish yo'lida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarning asosiy maqsadi ham madaniyatlar va tillar xilma-xilligini ta'minlashdan iboratdir. CHunki aynan til tufayli millat va elatlarning madaniyati, urf-odatlarini saqlanib qoladi.

Tillar saqlanib qolishi uchun ularni qo'llab-quvvatlash zarur. Aynan til tufayli insoniyat biror millatga mansubligidan faxrlanib yashaydi. Barcha tillarni tan olish va hurmat qilish tinchlikning kafolatidir. SHu sababli har bir xalq o'z tilini saqlab qolishga intiladi.

Bugungi kunda dunyodagi mavjud tillarning teng yarmi sakkiz mamlakat – Meksika, Indoneziya, Kamerun, Braziliya, Hindiston, Xitoy, AQSH va Rossiyaga to'g'ri keladi. Eng ko'p tilli mamlakat sifatida Hindiston tan olinadi. Bu mamlakatda aholi 845 til va lahjada so'zlashadi[4].



Sayyoramizda eng ko'p aholi so'zlashadigan til sifatida xitoy, ingliz va ispan tillari tan olingan. Birinchi o'nlikka hindi, bengal, arab, portugal, nemis, rus va yapon tillari kiritilgan. Jahon tillarining atigi 4 foizi yevropa qit'asiga to'g'ri kelsa-da, eng ko'p so'zlashuvchi tillarning teng yarmi "ko'hna qit'a"da ekani ma'lum bo'ldi. 341 million kishi ingliz tilini ona tili deb biladi, biroq yana 350 million kishi bu tilni ikkinchi ona tili sifatida ko'rishini ma'lum qilgan.

Tahlilchilar xitoy va ingliz tillari foydalanish bo'yicha o'z mavqeini oshirib borayotganini aytadi. Kuzatuvchilarning fikricha, foydalanuvchilar soni bo'yicha ayni damda ingliz tili yetakchilik qilayotgan bo'lsa, XXI asr o'rtalariga borib, xitoy tili asosiy til bo'lib olishi mumkin.

Mavjud tillardan 90 foizining har biridan 100 ming aholi foydalanadi. Mana shuning o'ziyoq bu tillarning kelajagi xavf ostidaligidan dalolat beradi. Masalan, 357 tilda atigi 50 kishi so'zlashar, 46 tildan esa atigi bittadan odam foydalanar ekan. Ularning vafotidan so'ng bu tillar yo'qoladi. Olimlarning fikricha, til yashab qolishi uchun unda kamida bir millon kishi so'zlashishi kerak. Biroq bunday tillar dunyoda atigi 250 ta.

Olimlarning fikricha, insoniyat tarixi davomida 9 mingdan ortiq til yo'q bo'lib ketgan. Nafaqat bosib olingan hududlardagi xalqlarning tillari, balki fotihlarning tillari ham yo'qolib ketgani tarixdan ma'lum. Bu borada qadimgi yunon, oromiy, lotin, sanskrit, vediy, assuriy, qadimgi fors tillarini misol keltirish mumkin[5].

YUNESKO mutaxassislari o'lib va yo'qolib borayotgan tillarni qutqarish mumkinligini aytishadi. Misol tariqasida o'tgan asrning 80 – yillarida Yaponiyaning Xokkaydo orolidagi atigi 8 kishi so'zlashgan ayn tilini keltirish mumkin. Bugungi kunda tiklangan bu tilda bir necha ming kishi gaplashmoqda. Ikki ming yil davomida o'lik til hisoblanib kelgan ivrit tili ham qayta iste'molga kiritildi. Hozir ivrit tilida 9 million kishi so'zlashadi.

Qadimda xalqlar o'z turar joylaridan majburan ko'chirilgani bois, o'zga tillarni o'zlashtirishga majbur bo'lgan. Endilikda kichik bir xalq yoshlarining kelajagi porloq



sifatida qaraladigan ikkinchi xalq tilidan foydalanishga urinayotgani bois tillar yo'qolmoqda.

Xulosa. Ona tilini muqaddas bilib yashagan xalq taraqqiy etadi, undan mosuvo bo'lgan millat o'z tarixi va kelajagidan uzilib, tanazzulga yuz tutadi. Qachonki, bolalar o'z ona tilida o'qishni to'xtatar ekan, o'sha tilning yo'qolish xavfi paydo bo'ladi. Tillarning yashashi millatning madaniyati, urf-odati, rasm-rusumlari saqlanib qolishini anglatadi.

Tilning saqlanishi xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydi. Til xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi, urf-odat, an'analarini saqlaydi. SHunday ekan, ona tilimiz – o'zbek tilining xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirish, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo'shishni istasak, har birimiz tilimizga chuqur hurmat bilan yondashishimiz kerak. Zero, xorijiy tilni bilish insonning madaniyatidan, ziyoliligidan darak beradi. Ona tilini bilish esa har bir fuqaro oldidagi muqaddas burchdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Harrison D. When languages die: The Extinction of World's Languages and the Erosion of Human Knowledge // Publisher: Oxford University Press. 2007. – P.304.
2. Hibat ul-haqoyiq (She'riy tabdilni amalga oshiruvchi, so'zboshi va izohlar muallifi: E.Ochilov). - T.: "Sharq", 2013. - 40 b.
3. <https://ru.wikipedia>.
4. History of Translation in India/Avadhesh Kumar Singh "Translation in/and Hindi Literature". National Translation Mission, CIIL, Mysuru, 2017.
5. https://uza.uz/oz/posts/sayyoramizdagi-7000-ga-yaqin-tilning-har-biri-ham-davlat-tili-maqomiga-ega-emas_530919